

OYBEK HAYOTI VA IJODIY FAOLIYATI

Rixsiboyeva Muborak Rustam qizi, talaba
Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'zbek adabiy tanqidchiligi muammolari, Oybek va uning tanqidchilikdagi faoliyati, Oybek ilmiy qarashlarining o'zbek adabiyotshunosligida o'rganilishi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: *Tanqidchilik, ilmiy-tanqidiy faoliyat, Oybekning badiiy-estetik qarashlari, sotsialistik realizm, o'zbek adabiy tanqidchiligi, munaqqid tahlili, davrlashtirish.*

ABSTRACT

This article talks the problems of Uzbek literary criticism, Oybek and his work in criticism, the study of Oybek's scientific views in Uzbek literary studies.

Keywords: *Criticism, scientific and critical activity, Oybek's artistic and aesthetic views, socialist realism, uzbek literary criticism, a critic's analysis, periodization.*

KIRISH (Introduction)

O'zbek adabiy tanqidchiligi shakllanishi va ravnaq topishi o'zining ma'lum davrlariga ega. Adabiyotshunoslik, tanqidchilik, badiiy ijod taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan ijodkorlar orasida Muso Toshmuhammad o'g'li Oybekning o'rni alohida. Uning chuqur mushohada va tahlilga asoslangan ilmiy ishlari bugungi kunga qadar adabiyotimiz rivoji uchun xizmat qilib kelmoqda. Taniqli munaqqid Ozod Sharafiddinov adib ijodiga baho berar ekan, "Oybek iste'dodining olmos qirralaridan biri-uning adabiyotshunoslik va tanqidchilik faoliyatida yarqirab ko'rinadi"-deb yozadi. Darhaqiqat, Oybek badiiy ijodda qanchalik mohir, o'z ishining ustasi bo'lsa, ilmiy faoliyatda ham shunday talabchan va bilimdon edi. Oybekning estetik qarashlari o'zbek adabiyotshunosligida yangi yo'nalishga yo'l ochib berdi. Ammo bu izlanishlarni to'liq o'rganish nisbatan kechroq amalga oshirildi. Ozod Sharafiddinovning "Iste'dod jilolari" (1976) kitobidan o'rin olgan "So'z san'atiga fidoyi sadoqat" nomli maqolasi Oybekning adabiy-tanqidiy qarashlarini o'rganishdagi ilk qadamlardan bo'ldi. Unda adibning Navoiy lirikasiga bag'ishlangan maqolasi, "Alisher Navoiy" tadqiqoti, "A.Qodiriyning ijod yo'li" risolasi haqida so'z yuritiladi. Olim o'z ishida Oybekning mahoratli adabiyotshunos ekanligiga ahamiyat qaratadi,

boy ilmiy-tanqidiy merosini tahlil etadi. U keyinchalik ham ko‘plab maqola va tadqiqotlarida Oybek ijodiga o‘zining munosabatini bildirib bordi. Yana bir adabiyotshunos olim, akademik Baxtiyor Nazarov nomzodlik dissertatsiyasini Oybekning adabiy-tanqidiy qarashlarini o‘rganishga bag‘ishladi. Uning “Bu sehrli dunyo”(1980) nomli kitobi Oybek hayoti, ijod olamiga kirib kelishi va mahoratli yozuvchi bo‘lib yetishishi haqidagi voqealarni bayon qiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Shu bilan birga Oybekning adabiy-tanqidiy qarashlarini ham tahlilga tortadi. Olimning “Hayotiylik bezavol mezon” (1985) kitobidan o‘rin olgan “Quyoshdek yashagan ichdagi sevgi” nomli maqolasida Oybekning ijodiy va ilmiy faoliyati o‘rganiladi. Maqola nomini uning she‘rlaridan biridagi dilbar misradan oladi. Sababi Oybekning adabiyotga, ijodga bo‘lgan mehri uning qalbida quyoshdek yashagan edi. Faqat Oybekgagina xos bo‘lgan uslub, mahorat munaqqid e‘tiborini tortadi va o‘z fikrlarini adibning hatto ilmiy maqola yozishda ham badiiylik va ilmiylikni uyg‘unlashtira olgani bilan isbotlaydi. So‘ngra shunday xulosaga keladi: Ilmiy maqolani bu qadar badiiy chechaklar bilan bezash, yozilayotgan masalani, xodisotni suratlashtirish, jonlantirish, tanqidiy ishni ham imkonicha badiiy asar yanglig‘ o‘qimishli qilish, mantiqiy va obrazli fikrlash orasida hukm surmish sarhadlarni ajib bir ustalik bilan yoritib, yozayotgan maqolasi to‘qimasiga ifor tuyg‘ularini singdirib yuborish olim Oybek uslubiga xos bo‘lgan fazilatlardan biridir.

Munaqqid ta’kidlab o‘tganidek, Oybekning ilmiy ishlari va adabiy-tanqidiy maqolalari xuddi badiiy asardek ehtiyoj farzandlari, zarurat xosilasi sifatida maydonga keldi.

“Bolalik” asari yozuvchining bolalik davriga to‘g‘ri kelgan. XX asr boshlaridagi Turkiston hayoti, Toshkent hayoti hikoya qilinadi. Bu masalaning bir tomoni. Ikkinchidan, Oybek o‘zi tug‘ilib o‘sgan muhit kartinalarini chizadi. Shuning uchun unda ham shahar, ham qishloq hayoti, bolalar o‘yinlari, ota-onalari va boshqa yaqinlari mashg‘ul bo‘lgan kosibchilik mashg‘ulotlari hikoya qilingan. Binobarin, ana shu hayotni ifoda etuvchi so‘zlar va atamalar keng o‘rin olganligi uchun ham “Bolalik” qissasining tili Oybekning boshqa asarlaridan farqlanadi. Buning sabablari, eng avvalo, unda hikoya qilinayotgan odamlar hayoti, voqealar, joylar bilan bog‘liq. Asar avtobiografik xarakterda bo‘lgani tufayli tasvir etilayotgan voqealar yosh Musoning oilasi, oiladagi yaqin kishilari, qarindosh urug‘lari, mahalladoshlari, tanish-bilishlari, birga o‘qiydigan va o‘ynaydigan jo‘ralar hayoti, ular yashaydigan, umrguzaronlik, tirikchilik qiladigan Toshkent dahalari, guzarlari, mahallalari, bozorlari, ko‘chalari, atrof qishloqlar, ularda yashaydigan kishilar va ularning kasbi bilan bog‘liq so‘zlar, iboralar, maqollar asosiga qurilgan.

Oybekning qirq olti yoshida og‘ir va bir umrli xastalikka yo‘liqqanida, shunday ijodiy kuchga to‘lgan edi. Ammo xastalik uning tiliga kishan solib, o‘ng qo‘lidagi qalamni bir umrga tortib oldi. Oybek ko‘pgina asarlarini, jumladan, "Bolalik" qissasini ham oila a‘zolariga aytib yozdirdi. Oybekning "Bolalik" qissasi estetik janrda yozilgan. Asarda bosh qahramonning biografiyasi xalq hayoti, davr hodisalari, ijtimoiy o‘zgarishlar bilan uzviy bog‘liq holda tasvirlangan.

Qissada bosh qahramon Musaboyning biografiyasini hikoya qilish orqali o‘sha yillardagi xalq hayotining keng haqiqiy manzarasi chizilgan.

Oybek bu qissani yozish bilan birga o‘zining bolalar dunyosini, kichkintoylar psixologiyasini qanchalik chuqur bilishini namoyish etadi. Chunki bu asarda bolalar xarakteri va psixologiyasining turli xil, hatto ba‘zan ko‘z ilg‘amas darajada nozik bo‘lgan murakkab tomonlari ham mohirlik bilan ochib berilgan.

Oybek xalq tili boyligini ruhini mukammal bilgan va ulardan ustalik bilan foydalana oladigan san‘atkor bo‘lganligi uchun ham "Bolalik"ning tili shirali, sodda va ravon ekanligini mohirona ifodalagan. Asar tilining bu fazilati, eng avvalo adibning tabiiylikni ta‘minlashi bilan o‘lchanadi.

Ustoz Oybek har bir asarida xalqimiz taraqqiyoti tarixidagi xarakterli davrni qalamga oladi. Uni butun murakkabligi bilan juda haqqoniy ifodalaydi. Natijada ko‘p qirrali ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotimiz munavvar ko‘zgu sifatida namoyon bo‘ladi.

Sevimli adib har bir tarixiy jarayonini haqqoniy aks ettirar ekan, xalq qalbi va ruhini butun to‘laligi bilan ijodlashga va badiiy mahsul qaddini tiklovchi tasviriy vositalarning tabiiyligiga alohida e‘tibor beradi.

Yozuvchini niyatini, nimaga urg‘u berayotganini anglatishda ayrim so‘zlar alohida funksiya o‘tashi tabiiy. Bunday so‘zlar ijobiy qahramon nutqida ham, salbiy qahramon nutqida ham, go‘zallikni, xunuklikni xarakterlashda ham qo‘llaniladi va ma‘noni yorqin namoyon etishga, tasvirni ixchamlashtirishga katta imkoniyat beradi. Oybek xalq tilidagi mavjud so‘zlarni mohirona tanlaydi, saralaydi, nutq davrasida alohida yuk ko‘taruvchi elementni topib ishlatadi.

"Navoiy" romani haqida. Oybek shoir, nosir, adabiyotshunos olim sifatida ham Navoiy hayotiga ko‘p bor murojaat etgan. Uning 1942-yil Ikkinchi jahon urushining qizg‘in bir paytida "Navoiy" romanini yozib tugatgani tasodif emas. Nafaqat ulug‘ shoir, balki XV asrdagi Xuroson hayotini ham puxta o‘rgangan. Adib bu asarda Navoiyning shoir va inson sifatidagi gumanizmi - insonparvarlik mohiyatini katta mahorat bilan gavdalantirib bergan. Oybek Navoiy obrazini XV asr Xurosonida ro‘y bergan muhim tarixiy voqealar fonida gavdalantirar ekan, shu davrda Temuriylar davlatini harakatga keltirgan, keyinchalik esa uni tanazzulga olib kelgan kuchlar va

ularning o‘zaro kurashini xaqqoniy aks ettirgan. Oybek mazkur asari bilan o‘zbek adabiyotida tarixiy-biografik roman janrini boshlab, uning asosiy tamoyillarini belgilab berdi. "Navoiy" romani keyinchalik o‘zbek adabiyotida "Ulug‘bek xazinasi", "Ko‘hna dunyo" Odil Yoqubov, "Yulduzli tunlar", "Avlodlar dovoni" Pirmqul Qodirov singari tarixiy-biografik romanlarning maydonga kelishiga zamin hozirladi.

"Quyosh qoraymas" romani Oybekning nasriy asarlari orasida o‘zbek xalqining Ikkinchi jahon urushidagi jasorati tasviriga bag‘ishlangan. "Quyosh qoraymas" (1943-1959) romani alohida e‘tiborga loyiq. Adib mazkur romanini garchand G‘arbiy frontga qilgan safaridan qaytib oq yoza boshlagan bo‘lsada, urush to‘g‘risidagi dahshatli haqiqatni aytishning iloji bo‘lmagani uchun, uni 50-yillarda - xastalik paytida yozib tugatdi. Oybek Bektemir va uning ikki jangovar do‘stining obrazini yaratish orqali Sovet davlatining urushga tayyorgarliksiz kirgani va sarkardalarning qo‘pol xatolari tufayli millionlab kishilar, shu jumladan, o‘zbek jangchilarining "top yemi" bo‘layotgani haqidagi haqiqatni badiiy mujassamlantirib berdi. Oybek qalamiga mansub roman va qissalar qaysi davr hayotidan olingan bo‘lmasin, adib shu davr hayotini mukammal o‘rgangan, ayniqsa, tarixiy davr va tarixiy shaxs hayoti bilan birlamchi manbalar asosida yaqindan tanishgan yozuvchi sifatida namoyon bo‘ladi. Oybekning nasriy asarlariga xos muhim xususiyatlardan yana biri shundaki, u asar qahramoni yoki tarixiy shaxsni Vatan va xalq manfaatlarini yo‘lida kurashuvchi, mehnatkash xalq orzu-armonlarining ro‘yobga chiqishi yo‘lida zahmat chekuvchi siymo sifatida tasvirlaydi.

Maqolalari. Oybek adabiy faoliyatining muhim qismini adabiyotshunoslikka oid tadqiqot va maqolalar tashkil etadi. O‘zbek xalqi tarixi va o‘zbek mumtoz adabiyotining ulkan bilimdoni Oybek o‘zining adabiy-tanqidiy faoliyatida adabiyotimizning eng qadimgi davridan to o‘tgan asrning 60-yillariga qadar kechgan shakllanish va taraqqiyot yo‘liga bag‘ishlangan ko‘plab maqolalar e‘lon qildi. Bu maqolalarning katta bir qismi Alisher Navoiy yashagan davr, shoir hayoti va ijodini o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, ular keyinchalik Oybekning "Navoiy gulshani" maqolalar to‘plamini tashkil etdi. Bu maqolalar navoiyshunoslikning o‘zbek adabiyotshunosligining muhim bir sohasi sifatida shakllanishi va rivojlanishiga hissa bo‘lib qo‘shildi. Shu bilan birga Oybek Yozuvchilar uyushmasi va Fanlar akademiyasi gumanitar bo‘limining raisi sifatida Navoiyning 500 yillik yubileyini tashkil etish va o‘tkazishga rahbarlik qildi. A. Deych bilan birga rus tilida Navoiyga bag‘ishlangan turkum maqolalar chop etdi. Bu maqolalar mualliflarning 1968-yilda nashr etilgan "Alisher Navoiy. Literaturno-kriticheskiy ocherk" kitobidan o‘rin olgan.

XULOSA (Conclusion)

Oybek ilmiy faoliyatini o'rganish bo'yicha olib borilgan ishlar, tadqiqotlar ayrim yoritilmagan jihatlarni ochdi. Adibning badiiy-estetik qarashlari turkumlarga bo'lindi va unga ko'ra Oybek ijodini o'rganishda yangicha yo'nalishlar aniqlandi. Tajribali adabiyotshunoslar, taniqli munaqqidlar o'z izlanishlarida adib ijodiga oid bir qancha yangiliklarni aniqlashdi, boshlab qo'yilgan ishlarni to'liq o'rganib adabiyot olamiga taqdim etishdi. Ularda Oybekning turli yo'nalishlardagi ijodiy merosi o'rganiladi. Oybek dahosini kashf etish, ba'zi o'rganilmagan masalalar bo'yicha izlanishlar bundan keyin ham davom etadi degan umiddamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.Mahmudov N. Va boshq. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. T.,1991.
- 2.Mahmudov N. Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi (sintaksis). T.: O'qituvchi, 1995.
- 3.Mahmudov N. Kesimning gapdagi maqomi. //O'zbek tili va adabiyoti. -T., 2009 №1.B. 44-55
- 4.Nurmonov A. Gap haqida sintaktik nazariyalar. -T., 1988.
- 5.Rixsiyeva G. Metafora haqidagi diss. Avtoreferati.
- 6.Qurbonova M. O'zbek tilshunosligida formal-funksional yondashuv va soda gap qurilishining talqini: Filol. fanlari d-ri dis... avtoref. - T., 2001. - 48 b.
- 7.G'ulomov A. Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. -T.: O'qituvchi, 1987.
- 8.<http://www.edu.uz/>
9. <http://ziyo.edu.uz/>